

## UKRAINA MUSTQILLIKDAN KEYING YILLARDA

*Otamurodov Samandar*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Annontatsiya :** Ushbu maqola orqali izlanuvchilarga Ukrainaning mustaqillikdan keying siyosati, iqtisodiyoti, siyosiy tuzumi, Rossiya va O'zbekiston bilan aloqalari to'g'risida ma'lumotlarni yetkazishdir. Bundan tashqari Ukraina prezidentlarining ichki va tashqi siyosatlari va bugungi kundagi Rossiya davlati bilan yuz berayotgan mojarolar va ularning Ukraina uchun salbiy oqibatlari haqida.

**Kalit so'zlar :** Qrim, "Batktivshchina", „Zenit“, Kongress, MDH, NATO.

1991-yil 24-avgust kuni Ukraina SSR Sovet Ittifoqidan mustaqilligini e'lon qildi va respublika nomi Ukrainaga o'zgartirildi. Ukraina mustaqilligi 1991-yilning 26-dekabrda Sovet Milliy bayrami — 24-avgust — Mustaqillik kuni (1991). 2014-yil mart oyida Qrim muxtor respublikasi va Sevastopol shahri Rossiya Federatsiyasi tarkibiga qo'shib olindi Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi 2022 yilda yuz berdi. Biroq bu bosqin uchun ma'naviy tayyorgarlik deyarli 10 yil oldin boshlangan edi. 2013 yil noyabr oyining so'nggi haftasida yuz bergan Ukrainadagi norozilik namoyishlari Kiyevning Rossiyaga tobelikdan chiqib ketishi uchun ilk harakatlari hisoblanadi. "Maydon – hurriyat, mustaqillik" shiorlari bilan tarixda qolgan Yevromaydon Ukrainaning Yevropaga yuzlanish jarayonini boshlab berdi. Undan avvalgi davrlarda esa Ukraina Rossiyaning siyosiy "tomorqasi" hisoblangan. Rossiya hukumati nafaqat Ukraina ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsata olar, hattoki davlat rahbarini ham saylashlariga "yordamlashib" yuborar edi. Ayrim manbalarga ko'ra, 2020 yil 25 fevralidan 2014 yil 22 fevraligacha bo'lgan davrda Ukrainani boshqargan prezident Viktor Fyodorovich Yanukovich ham Rossiyaning "yaqin do'sti" bo'lgan. Yanukovich ruslar ko'p yashaydigan va o'sha davrda rossiyaparastlik kayfiyati kuchli bo'lgan Donetsk viloyatida tug'ilib o'sgan[1].

2004 yilda "Zarg'aldoq inqilobi" natijasida Viktor Yushchenkning prezident bo'lishi Rossiyaga yoqmasdi. Bu saylovlarda nomzodi qo'yilgan Viktor Yanukovich mag'lub bo'ldi. Turli siyosiy o'yinlar va manipulyatsiyalar natijasida, nihoyat 2010 yildagi saylovlarda Viktor Yanukovich Ukraina prezidentiga aylandi. Avvaliga o'zining asl maqsad va qarashlarini turli populistik shiorlar ostida yashirib yurgan Yanukovich 2013 yilda Rossiya uchun maqbul qadamni qo'ydi. 2007 yilda boshlangan muzokaralar natijasida Yushchenkning sa'y-harakatlari bilan tayyorlangan, hatto parlament tomonidan parafinlangan (tasdiqlangan), mamlakatning Yevroittifoq bilan integratsiyasini maqsad qilgan "Ukraina va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi assotsiatsiya to'g'risidagi shartnoma" Yanukovich tomonidan rad etildi. Bu mamlakatdagi demokratik kuchlarga yoqmasdi. Shartnomani imzolash prezident tomonidan

to'xtatilgan kuni – 2013 yil 21 noyabrda ukrainalik jurnalist Mustafo Naim ijtimoiy tarmoqlar orqali tanishlarini maydonga chorladi. “Mustaqillik yodgorligi ostida uchrashaylik. Shunchaki qahva ichib muloqot qilib o'tiramiz. Issiq kiyinib olinglar”, deb yozilgan xabar tez tarqaldi. Xalq Mustaqillik maydoniga yig'ila boshladi. (Shu bois bu noroziliklar “Yevromaydon” nomini olgan)[2].

Ko'plab davlatlar uchun Rossiyaning Ukrainaga bosqini — bu Sharqiy Yevropada ro'y berayotgan, ularning rivojlanish istiqbollari, tengsizlikka qarshi kurash, iqlim inqirozi va hokazolarga bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yiroqdagi mojaro. Rossiya-Ukraina urushida (tuproq va loy kechib) to'g'ridan to'g'ri bor-yo'g'i ikki davlat ishtirok etmoqda, urush esa cheklangan hududda bo'lmoqda. Yevropada bunaqasi uzoq vaqtdan buyon birinchi marta kuzatilayotgani rost. Agar «yevropaga xoslik» omili olib tashlansa — bu shunchaki jahonda yuzlab sodir bo'layotgan regional mojarolardan biri. O'sha Afrika davlatlariga bu sof jo'g'rofiy jihatdan yaqinroq — Efiopiyadagi markaziy hokimiyat va ayirmachilar o'rtasidagi urush, Sudanning Darfuridagi navbatdagi keskinlashuv kabi: o'sha qochqinlar, o'sha yetkazish zanjirlarining uzilishi, o'sha «tashqi o'yinchilar»ning qo'shilishi va murakkab diplomatik manyovrlari bilan. Yana Mali, Chad, Markaziy Afrika Respublikasi, Suriya, Afg'oniston, Yaman, arab-isroil mojarosi, Tayvan atrofidagi taranglikning oshib borishi va hokazo vaziyatlar bor. Ukrainadagi urush — so'nggi o'n yilliklarning eng qonli mojarolaridan biri. Agar yarim millionga yaqin yo'qotishlar bilan bog'liq eng yuqori baholashlar inobatga olinsa ham bu so'nggi yillarning rekordi emas. Darfurda 2022 yil so'nggiga kelib o'lganlar soni 600 mingdan oshgan. To'qsoninchi va nolinch yillar chegarasida Kongoda bo'lgan fuqarolik urushida 4 millionga yaqin inson halok bo'lgan. [3].

Amaldagi konstitutsiyasi 1996-yil 28-iyunda qabul qilingan. Davlat boshlig'i — prezident (2019-yildan Volodimir Zelenskiy), u to'g'ri va yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi va 2 muddatdan ortiq saylanishi mumkin emas. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Oliy Rada (parlament), ijrochi hokimiyatni bosh vazir boshchiligida Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Siyosiy beqarorlik va iqtisodiy qiyinchiliklar uzoq yillardan beri hal qilinmay kelinayotgan ijtimoiy muammolar bilan qo'shilib, bir qator siyosiy inqirozlarga olib keldi. 2004-yilgi saylovlarda Viktor Yanukovichning g'olib deb e'lon qilinishi ko'p kishilik norozilik namoyishiga sabab bo'ldi. Natijada, o'tkazilgan uchinchi tur saylovlarida «Bizning Ukraina» bloki yetakchisi Viktor Yushchenko Ukraina prezidenti etib saylandi. Lekin o'nglanish sodir bo'kmadi va 2010-yilgi saylovlarda V. Yanukovich g'olib chiqdi. 2000-yil boshlarida Ukrainada 100 dan ortiq siyosiy partiya, 1,5 ming jamoat tashkiloti bo'lgan. Eng ommaviy va nufuzli siyosiy birlashma va partiyalari: Ukraina Xalq Rux (Ukraina Xalq Harakati) harakati (1989), Kommunistik partiya, Sotsialistik partiya (1991), Umumukrain birlashmasi — „Batkivshchina“ („Vatan“, 1999), Sotsialdemokratik partiya (birlashgan, 1995), Regionlar partiyasi (2001), Ko'katparvarlar partiyasi

(1990). Ukraina kasaba uyushmalari federatsiyasi (1990) va bir qancha mustaqil tarmoq kasaba uyushmalari ham mavjud [4].

Mahalliy temir va marganets ruda konlari asosida ishlovchi qora metallurgiya korxonalarini cho‘yan, po‘lat, prokat, polimetall konlariga asoslangan rangli metallurgiya korxonalarini simob, alyuminiy, titan, sirkoniy, nikel, mashinasozlik va metallsozlikning yirik korxonasi bo‘lmish Novokramatorsk mashinasozlik zavodi domna va marten pechlari uchun uskunalari, shaxtalar uchun mashinalar, yuk ko‘tarish mexanizmlari, temirchilik press uskunalari, ekskavatorlar ishlab chiqaradi. Radioelektronika sanoati, shu jumladan, televizor va EHMlar ishlab chiqarish rivojlangan. Ukrainada teplovoz (Lugansk), vagon (Dneprodzerjinsk, Kremenchug, Kadiyevka), avtobus va avtoyuklagich (Lvov), yengil avtomobil (Zaporozhye), yuk avtomobillari (Kremenchug) zavodlari, kemasozlik (Nikolayev), Xerson, Kiyev samolyotsozlik, stanoksozlik, asbobsozlik, energetika va elektr texnika sanoati korxonalarini bor. Kime va neft kimyosi sanoati korxonalarini lok, bo‘yoq, sintetik smola, plastmassa, sun‘iy va sintetik tola, kimyoviy reaktorlar, fotoreaktivlar, qishloq xo‘jaligi va ro‘zg‘orda ishlatiladigan turli mahsulotlar ishlab chiqaradi[5].

V. Yanukovich Ukrainani tark etdi. 2014-yil bo‘lib o‘tgan saylovlarda Pyotr Poroshenko Ukraina prezidenti etib saylandi. 2014-yil sentabr oyida Belarus Respublikasi poytaxti Minsk shahrida Rossiya, Ukraina hamda Donetsk va Lugansk viloyatlari vakillari o‘rtasida harbiy harakatlarni to‘xtatish to‘g‘risida kelishuv imzolandi. Ammo 2015-yil yanvar oyining o‘rtalaridan janglar yana boshlanib ketdi. 2017-yil noyabr oyida artilleriya dan o‘zaro otishmalar yangidan boshlanib ketdi. G‘arb davlatlari va Ukraina bu mojaroda Rossiyani isyonchilarni qo‘llabquvvatlashda ayblab kelmoqda. AQShning Demokratik va Respublikachi partiyalari kongressmenlari 25 aprel, seshanba kuni Kongress Vakillar palatasiga Ukrainadagi urush bu davlatning 1991 yilgi chegaralariga qaytishi bilan yakunlanishi kerakligi ta‘kidlangan rezolyutsiya loyihasini taqdim etdi[6].

«AQSh siyosati shundan iboratki, Ukraina bosqinni yengib, xalqaro tan olingan chegaralarini 1991 yil doirasida, ya‘ni Qrim va Rossiya Federatsiyasi tomonidan annexia qilingan boshqa hududlar bilan tiklashi kerak», deyiladi hujjatda. Shuningdek, rezolyutsiya loyihasida Ukraina NATOga a‘zo bo‘lishi, Rossiya tovon puli to‘lashi, Kreml rasmiylari esa harbiy jinoyatlarda ayblanib sudlanishi kerakligi aytiladi. Hujjat Kongressning Helsinki komissiyasi a‘zolari bo‘lgan respublikachi Jo Uilson va demokrat Stiv Koen tomonidan tayyorlangan. Hujjat ovozga qo‘yilishidan oldin Vakillar palatasining Tashqi ishlar qo‘mitasi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Ayni paytda, Kongressning Helsinki komissiyasi Twitter’dagi sahifasida 25 aprel kuni Kapitoliy yaqinida Ukrainaning o‘nlab tarafdorlari yig‘ilgani, ular rezolyutsiyaning Kongressga kiritilishini olqishlagani haqida xabar berdi. Yig‘ilganlar orasida Ukrainaning sobiq prezidenti Viktor Yushchenko ham bo‘lgan. 2022-yil 24-fevralda Rossiya Ukrainaga bosqinchilik hujumini boshladi. Bu urush haligacha to‘xtamadi. Bu jangda Rossiya

tarafini Shimoliy Koreya, Xitoy, Belarus, Eron olmoqda. Qolgan dunyo davlatlari esa Ukraina tarafda. Bu urush bois dunyo bu 4 davlatlarga qarshi (Sh. Koreya, Eron, Belarus va Xitoy) juda ko'p sanksiyalar qo'llamoqda [7].

1991 yil Ukraina va O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat o'rtasida 1992 yil 14 avgustda diplomatiya munosabatlari o'rnatildi. 1998 yil 18 fevralda O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasida Do'stlik va har tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish to'g'risidagi shartnoma imzolangan, O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina ishonchli strategik hamkor bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi va Ukraina davlat hamda hukumat rahbarlarining o'zaro tashriflari natijasida 40 ga yaqin muhim hujjatlar imzolanib, hamkorlikning huquqiy asoslari yaratildi. Jahon siyosati sohasidagi fikrlarning birbiriga yaqinligi qayd etildi. Iqtisodiy, ilmiytexnikaviy va ijtimoiy soqalarda hamkorlik o'rnatish haqida kelishib olindi. Ko'p tomonlama hamkorlik bo'yicha tuzilgan O'zbekiston — Ukraina qo'shma komissiyasi 2 tomonlama munosabatlarni muvofiqlashtirib turibdi. Vakolatli banklar o'rtasida o'zaro hisobkitob va to'lovlar borasida aloqa o'rnatilgan. Ayni paytda O'zbekiston bilan U. o'rtasida erkin savdo tartibi joriy etilgan. Natijada Ukraina MDH mamlakatlari orasida O'zbekistonning eng yirik savdo hamkorlaridan biriga aylandi. 2003-yil O'zbekiston Respublikasi bilan Ukrainaning umumiy tovar aylanmasi 280 mln[8].

AQSH dollarini tashkil etdi. Ukraina O'zbekiston Respublikasiga metallurgiya sanoati mahsuloti, xizmatlar, neft va gaz sanoati uchun jihozlar, energetika jihozlari, dvigatellarning qismlari, nasos, sentrifugalar, ruda yanchish mashinalari, elektr generatorlar, vagonlar uchun g'ildiraklar va boshqa yuboradi, O'zbekiston Respublikasidan xizmatlar, energiya manbalari, rangli metallar, paxta, oziq-ovqat mahsulotlari (quritilgan mevalar) oladi. 1996—2003 yillar mobaynida Ukrainaning Ilichyovsk porti orqali 325 ming t O'zbekiston paxta tolasi xorijga jo'natildi. UzRda Ukraina ishbiarmonlari ishtirokida tuzilgan 40 qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ukrainada esa O'zbekiston Respublikasi sarmoyasi ishtirokida 22 qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Ikki mamlakatning ayrim hududlari, jumladan, Navoiy va Zaporozhye, Samarqand va Lvov, Qashqadaryo va Summ viloyatlari o'rtasida uzoq muddatli savdoiqtisodiy, ilmiytexnikaviy va madaniy hamkorlik to'grisida bitimlar imzolangan [9].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1. Ukraina SSR" (o'zbekcha). Ensiklopedik lug'at.
- 2. UKRAINIAN UPPER PALAEOLITHIC BETWEEN 40/10.000 BP
- 3. Bilinsky, Yaroslav The Second Soviet Republic: The Ukraine after World War II (Rutgers University Press, ) online (Wayback Machine saytida 2020-07-07 sanasida arxivlangan)
- 4. Hrushevsky, Michael. A History of Ukraine (1986)

•5. Katchanovski Ivan; Kohut, Zenon E.; Nebesio, Bohdan Y.; and Yurkevich, Myroslav. Historical Dictionary of Ukraine. Second Edition. Scarecrow Press, 2013. 968 pp.

•6. Історія України : універсальний ілюстрований довідник / В. К. Губарев. — Донецьк : БАО, 2008. — 573 с.

•7. KUN.UZ

•8. Evronews tims.

•9. LEX.UZ